

KELAJAK AVLOD TARBIYASIDA TASVIRIY SAN'ATNING O'RNI

Mamitaliev Ahmadjon G'aniyevich

O'zbekiston badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi

Andijondavlat pedagogika instituti Tasviriyl san'at fani o'qituvchisi

Adhamova Oltinoy Rafiqjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

“Tasviriyl san'at va muhandislik grafikasi” yo'nalishi talabasi

Solijonova Muhtasarxon Jahongir qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

“Tasviriyl san'at va muhandislik grafikasi” yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola tasviriyl san'at fani to'grisida keng fikr mulohazalar yuritib, tasviriyl san'atning yosh avlod tarbiyasiga qay darajada tasir etish tomonlarini keng talqin etadi. shuningdek inson hayotida tasviriyl san'atning o'rni qay darajada ahamiyatli ekanligi to'grisida so'z yuritib metodik tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: ta'lif, jamiyat, o'quvchi, yosh-avlod, san'at, tasviriyl san'at, tasavvur, idrok, ijod, samaradorlik.

Biz uchun bolalarimizning ma'naviyati, bilimi, sog'ligi eng muhim masala!

SH.Mirziyoyev

Bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bu ta'lif tizimini tubdan isloq qilish va ta'lif sifatini oshirishdan iborat. Mamlakatimizda bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bizga ma'lumki mamlakatimizda ta'lif sohasi, davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan hamda, o'sib kelayotgan yosh avlodni ham ma'nan va jismonan sog'lom, barkamol, komil inson ruhida tarbiyalash bugungi kunda kun tartibiga aylandi desak mubolaga bo'lmaydi. Har bir yosh avlod kelajagimiz bunyodkori va ertangi kunimiz asoschisidir. Bugungi kunda yoshlarga qanday ta'lif tarbiya bersak, keljakda ulardan shu bergen ta'lif-tarbiyamizning natijasini ko'ramiz. Yosh avlodni barkamol, yetuk, o'z vatanini sevadigan, o'z manfaatidan vatan manfaatini ustun qo'yadigan bir so'z bilan aytganda “Komil inson” qilib tarbiyalash jamiyatimizning oldiga qo'ygan eng muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ona vatanimizda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar ko'zni quvontiradi. Muhtaram

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning biz yoshlarga berayotgan imkoniyatlarini, islohotlar jarayoni yaqqol ko'rsatib turibdi, shu bilan birgalikda, davlatimiz siyosati har tomonlama yoshlarni qo'llab quvvatlashga qaratilayotganini ham guvohi bo'lyabmiz. Shunday davrda yosh avlodga sifatli ta'lim-tarbiya berish ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash barcha o'qituvchilarining oldida turgan eng muhim vazifasidir. Uzoq tariximiz shuni ko'rsatadiki, hech bir millatning tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzi o'z-o'zidan shakllanib qolmagan. Bunday ezgu fazilatlar tinimsiz mehnat, intilish, harakat, matonat asrlar davomida xalqimiz qon-qoniga singib, ibratli ko'rinish kasb etgan. Bugungidek hayot su'ratlari ko'z ilg'amas darajada shiddat bilan harakatlanayotgan zamonda chinakam ma'naviyatli, ma'rifatli va madaniyatli insongina, inson qadrini bilishi, milliy o'zligini anglashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurasha olishi mumkin.

Hozirda ertangi kun egalari bo'lmish yosh-avlod ushbu xaqiqatlarni tushungan holda mas'uliyat bilan harakat qilmogi o'qib-o'rganmog'i shart. Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq!" Shunday ekan har bir yoshga yahshi ta'lim-tarbiya berishni o'z oldimizga maqsad qilib olsak va bu uchun sidqi dildan harakat qilsakkina ko'zlangan maqsadimizga erishishimiz mumkin. Ushbu jarayonda yoshlarga ta'lim tarbiya bilan bir qatorda ularning qalbida san'atga va albatta asosan tasviriy san'atga nisbatan mehr tuyg'ularini uyg'otmoq darkor. Tasviriy san'at o'quv predmeti o'z xarakteriga ko'ra estetik tarbiyaning asosini tashkil etuvchi estetik idrok, estetik zavq, estetik his-tuyg'u, estetik did, estetik mulohaza, estetik baholash, estetik ijod kabi sifatlarni o'stirishda katta rol o'ynaydi.

San'at tabiat va jamiyatdagi voqeа-hodisalarning badiiy tasvirlarda ifodalishidir. San'at o'zida moddiy olamning umumiy holatini hamda rivojlanishini aks ettirish, odamlarga uni bildirishda muhim vosita bo'lish bilan birga, insonni siyosiy, axloqiy va badiiy jihatdan tarbiyalashning qudratli omili bo'lib xizmat qiladi. San'at voqelikni ifodalash uslubi, xarakteri, mazmuniga ko'ra, tasviriy san'at, me'morchilik, adabiyot, musiqa, sirk, teatr, kino, radio-televideniya kabi turlarga bo'linadi. San'atning ijobiy va eng muhim xususiyati shundaki, u fandan farqli o'laroq, voqeа-hodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his tuyg'u bilan idrok qilinadigan shakllarda, tipik badiiy obrazlarda ifodalaydi. Ma'lumki, har bir jamiyat o'zining ma'lum iqtisodiy-siyosiy holatidan kelib chiqib, san'at rivojiga muayyan darajada sharoit yaratadi. Shu boisdan har bir jamiyat san'ati o'z davri uchun xizmat qiladi. Har bir jamiyatdagi san'at erkinlik asosida vujudga kelsa, bu san'at o'zida insonparvarlik, vatanparvarlik va milliylik kabi ilg'or g'oyalarni ilgari suradi. San'at

xalqning maqsadi, orzu umidlarini aks ettiradi. San'at insoniyatning ezgu niyatlarini, ularning orzu-umidlarini to'la ifoda etadi. Shu boisdan xalqimiz o'z san'atini qanchalik ardoqlab, unga hurmat va ehtirom bildirsa, jahon xalqlari ham bugungi o'zbek san'atiga ana shunday ixlos va ehtirom bilan qaraydilar. San'at uzoq tarixga ega bo'lib, u jamiyatda mehnat faoliyatining rivojlanishi, takomillashuvi va ijtimoiy faoliyatning taraqqiyoti asosida shakllandi. U moddiy ishlab chiqarish, jamiyatning iqtisodiy tuzumi va mehnat munosabatlari hamda qurollarining takomillashuvi tufayli jamiyat ongining evolutsion taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan va rivojlangan. San'at tushunchasi keng bo'lib, u avvalo inson hissiyoti bilan bog'liqdir. Shuning uchun tasviriy san'at boshqa san'at turlari kabi kishilarning his tuyg'ulariga kuchli ta'sir o'tkaza oladi. Tasviriy san'atda turli xil voqeа-hodisalar, munosabatlar, manzaralar aks etadi. Insonlar tasviriy san'at asarlarini tomosha qilib, ularda aks etgan voqeа-hodisalar, holatlar, go'zalliklarga o'z munosabatlarini bildiradilar, ta'sirlanadilar. Insonlarni, tabiat ko'rinishlarini, voqeа-hodisalarni, narsalarni tekis yuzalarda yoki hajmlarda turli vositalar bilan ifodalash "**Tasviriy san'at**" deyiladi.

Tasviriy san'atni o'rganish jarayonida yoshlarda ko'rish, kuzatish, idrok etish, hayoliy tasavurlarining kengayishi, tabiat go'zaliklarini ko'ra olish jihatlarini rivojlantiradi. Tasviriy sana't borliqni, atrof-muhitni bilishga o'rgatadi va hayolot dunyoyimizni kengaytiradi. Tasviriy san'atning muhim xususiyatlaridan biri — inson uchun faqat borliqni, tabiat va jamiyatdagи voqeа-hodisalar va narsalarni bildiribgina qolmay, odamlarga yangi bilim, tasavvur va tushunchalar berib, ma'naviyatini boyituvchi, ijodiy yuksalishga boshlovchi qudratlari omil bo'lib xizmat qiladi. Yoki bir so'z bilan aytganda, V.G.Belinskiy ta'rificha, „San'at — obrazli tafakkurdir“.¹ Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy estetik madaniyatga doir elementlar, bilim va malakalar beruvchi omildir, chunki har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qatiy nazar u go'zallikdan bahramand bo'lishi, undan zavqlanib dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi lozim. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan sanat asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek, ko'pchilik o'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm bilan ishlashlariga to'g'ri keladi. Tasviriy san'at fanini o'qitishdan maqsad bolalarda kuzatuvchanlikni o'stirish, borliqni ko'ra bilish, qolaversa shu orqali xotirani rivojlantirish hisoblanadi. Ma'lumki, tevarak-atrofdan olayotgan axborotlarning deyarli 90 foizidan ortig'ini ko'z orqali oladi, qolgan 10 foizini qulq, burun, og'iz va boshqa a'zolari orqali o'zlashtiradi. Bu sifatlar borliqni idrok etish mashg'ulotlarida shuningdek, naturadan tasvirlash, san'atshunoslik asoslari

¹ V.G.Belinskiy. Tanlangan asarlar. 3-tom. M. 1948-yil. 67-bet.

mashg‘ulotlarida alohida ahamiyatlidir... Ma’lumki ta’lim –tarbiya jarayonida boshlang‘ich sinflar ta’limi alohida bosqich bo‘lib, bu davr bola shaxsining eng jadal rivojlanish davri hisoblanadi. Chunki 5-6 yoshdan 10-11 yoshgacha bo‘lgan davrda bola shaxsi yetuklik va o‘smirlik davrida bo‘lib, bola shaxsi ko‘rish, kuzatish, idrok etish, tasavvur va tafakkur qilishga o‘rganish jarayonidagi eng shiddatli bosqich bo‘ladi. Mamlakatimizning ko‘plab maktablarida quyidagi muammolarga duch kelamiz. Tasviriy san’at fanini boshlang‘ich sinflarda o‘z mutaxassisi o‘tkazmaganligi sababli o‘quvchilar tasviriy san’at fani nimani o‘rgatadi, ranglar haqida, rasm chizishda nimalarga e’tibor beriladi, palitra nima, o‘quv qurollarini yaxshi bilishmaydi, chiziqlar, shakllar, bo‘yoqlar, asosiy ranglar, rasm chizishda ketma-ketlikda ya’ni bosqichma-bosqich chizish kerakligi haqida ma’lumotga ega bo‘lmay ulg‘ayishlari achinarli holat. Tasviriy san’atni umumiyligi ta’lim maktablarida o‘qitilishining foydali ekanligi buyuk chek pedagogi Ya.A.Komenskiy tomonidan uning «Buyuk didaktika» asarida rivojlantirildi. Umumiyligi ta’lim tizimida rasm ishlashni takomillashtirishda fransuz olimi J.J.Russoning fikrlari diqqatga sazovordir. U o‘zining «Емил или воспитание» nomli kitobida borliqni bilishda naturaga qarab rasm ishlashning ahamiyati katta ekanligini isbotlab bergen. Uning fikricha rasm chizishni ko‘proq tabiat qo‘ynida amaga oshirish samaralidir. Chunki, bolalar tabiat qo‘ynida narsalarni haqiqiy rangi, perspektiv qisqarishlarini ko‘rgazmali ravishda o‘z ko‘zlar bilan ko‘radilar, uning qonunlarini ongli ravishda tushunib yetadilar. Yevropa pedagoglari orasida rasm chizishni umumiyligi ta’lim maktablarida alohida o‘quv predmeti sifatida o‘qitilishi va uni takomillashtirishda I.V.Gyote (Germaniya), I.G.Pestalotssi, I.Shmidt va P. Shmidt (Shvetsariya), A. Dyupyui va F. Dyupyuilar (Fransiya) katta hissa qo‘shdilar. Umumiyligi ta’lim maktablarida rasm ishlashda natural metoddan ko‘ra geometrik metodlarni afzalliklarini N.Pestalotssi, P.Shmidt va I.Shmidt kabi pedagoglar yoqlab chiqdilar. Natijada, maktablarda rasm chizishga o‘rgatishda ikkita qarama-qarshi natural va geometrik metodga asoslangan ikki oqim paydo bo‘idi. Naturaga asoslangan rasm chizishni ustunliklarini Ya.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.V.Gyotelar yoqlagan bo‘lsalar, geometrik metodni ko‘proq I.G.Pestalotssi, I.Shmidt va P.Shmidt, F.Dyupyuilar asoslashga harakat qilganlar.

Tasviriy san’at dunyoni, insonning go‘zallikka bo‘lgan intilishlarini teran fikrlashga undaydi. Xalqimizning tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishlari, mustaqil yurtimizni yanada go‘zal qilishga, uni estetik jihatdan boyitishga intilishlari benihoyadir. Davlatimiz o‘zi shakllanayotgan murakkab bir davrda badiiy madaniyat taqdiri uchun mas’uliyatni zimmasiga olib, tasviriy san’at sohasiga alohida e’tibor qaratdi. 1997-yilda birinchi Prezidentimiz I.Karimov farmoni bilan O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi tashkil etildi. Badiiy Akademiya zimmasida O‘zbekiston hududida shakllangan milliy san’atning turli maktablariga xos noyob an’analarni asrab-avaylash,

o‘rganish va rivojlantirish; milliy tasviriy, amaliy, miniyatyura san’ati durdonalarini ommalashtirish; zamon talabiga javob beradigan badiiy ta’lim tizimini yaratish; yuqori malakali kadrlar tayyorlash; akademik yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarni rivojlantirish vazifasi turardi. O‘zbekiston Badiiy Akademiyasining samarali faoliyati natijasida mustaqillik yillarida o‘z asarlari bilan yurtimizni dunyoga mashhur qilgan rassomlar nomi ulug‘lanib, ularga yuksak e’tibor ko‘rsatildi. O‘zbekistonni boy madaniy merosga ega va yuksak badiiy yutuqlarga erishgan davlat sifatidagi mavqeini oshirish, tasviriy san’atni rivojlantirish uchun asos yaratildi. Mustaqillik davri rassomlari ijodi va asarlari tasviriy san’at kurslari mashg‘ulotlarida, san’at yo‘nalishidagi o‘quv yurtlarida chuqurroq o‘rgatiladi. Istiqlol tufayli ularning ijodi kengroq o‘rganilib, darsliklarga kiritilmoqda.

Tasviriy san’at darslarining o‘ziga xos, maxsus vazifalari mavjud. Ya’ni borliqdagi va san’atdagagi go‘zalliklarni ko‘ra bilish, idrok etish, tushunish va qadrlashga o‘rgatish; estetik va badiiy didni o‘stirish; bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish, tasviriy san’atning nazariy asoslari (yorug‘soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya) bilan tanishtirish, rasm ishslash, haykal yasash, badiiy qurish-yasash yuzasidan elementlar malakalar hosil qilish, kuzatuvchanlik, ko‘rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarni, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, tasviriy, amaliy me’morchilik san’at asarlarini tushungan holda o‘qiy olishga o‘rgatish; san’atga nisbatan qiziqish uyg‘otish, uni qadrlashga, sevishga o‘rgatish.

Shu bilan birgalikda tasviriy san’at darslarining qo‘srimcha vazifalari ham mavjud. Bular: borliqni, hayotni bilishga ko‘maklashish; milliy g‘urur va milliy istiqlol mafkurasini amalga oshirish, bolalarda axloqiy, mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish, bolalarni turli kasb va hunarlarga yollash.

Tasviriy san’at o‘quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to‘xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u mакtabda o‘qitiladigan deyarli barcha o‘quv predmetlari bilan bog‘lanadi va ular yuzasidan materiallarni o‘zlashtirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, u o‘qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san’at, hattoki fizika, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. Shuni ham qayd qilish lozimki, tasviriy san’at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan

bo‘lsada, u axloqiy, mexnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Har qanday o‘quv predmeti ta’lim mazmunida, albatta, o‘zbek xalqi yaratgan beqiyos boy, madaniy va ma’naviy merosni o‘ziga asos qilib olishi lozim. Shunday ekan, o‘zbek xalqining dunyoga mashhur bo‘lgan me’morchilik, amaliy va tasviriy san’at asarlarini maktablarda boshqa materiallarga qaraganda kengroq va chuqurroq o‘rgatilishi talab etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, tasviriy san’at inson ongiga juda tez ta’sir etib, unda ezgu hislar uyg‘otadi. Yosh avlod tarbiyasida barcha fanlar qatori tasviriy san’atning ahamiyati benihoya katta. Hozirgi kunda maktablarimizning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda borliqni faqat ijodiy o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj va qobiliyatni shakllantirishgina emas, balki ularda go‘zallik qonunlari asosida borliqni qaytadan qurish hissini tarbiyalash hamdir. Shu sababli maktablarda tasviriy san’at dars soatlarini ko‘paytirish va dars samaradorligini oshirish talab etiladi. Tasviriy san’at darslarini ko‘proq tashkil etish o‘quvchilarda dunyoni keng va atroficha ko‘ra olishga, shuningdekko‘rish orqali olgan taasurotlari doirasini kengaytirishga, narsalar haqida aniq va to‘liq tushunchaga ega bo‘lishlariga yaqindan yordam beradi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, badiiy madaniyat asoslardan hisoblangan tasviriy san’at bolalarning ko‘ngil ochuvchi o‘quv predmeti emas, balki bolalarda ijodkorlikni, tafakkurni fahm-farosatni o‘stiruvchi, shuningdek kuzatuvchanlik va hayotni bilishga ni o‘zgartirishga, ezgulikni yovuzlikdan farqlashga o‘rgatuvchi o‘quv predmeti deb qarash lozim. Tasviriy san’at ijtimoiy hayotda ham muhim o‘rin egallaydi hamda inson tafakkuridagi nozik o‘zgarishlarni ham o‘zida aks ettiradi, insonlar qiyofasi va o‘zgalar bilan o‘zaro munosabatlarini ham yoritib beradi. Sanatga insonning moddiy va ma’naviy faoliyatidagi blimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsuli deb ham qarash mumkin. Chunki jamiyatimizdagi har bir inson qaysi sohada ish olib borayotganligidan qat’iy nazar, go‘zallik va nafislikni ko‘ra bilishi va tushuna olishi kerak. Zero san’atga oshno qalblardan hech qachon yomonlik chiqmaydi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

- 1.B.Oripov.Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi.”Ilm-zifo nashriyoti” 2005-yil Toshkent.
- 2.R.Hasanov.Maktabda tasviriy san’at mashgulotlarini takomillashtirish yo‘llari.”O‘qituvchi” nashriyoti 1986-yil Toshkent.
3. R.Xasanov. Maktabda tasviriy san’at o‘qitish metodikasi.”Fan” nashriyoti 2004-yil Toshkent.
- 4.N.Abdullayev.San’at tarixi.1-tom.”O‘qituvchi” nashriyoti 1986-yil Toshkent
- 5.S.Abdirasilov.Tasviriy san’at o‘qitish metodikasidan amaliy mashg‘ulotlarni bajarish.1996-yil Toshkent.
- 6.B.N.Orripov.Tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy pedagogik tehnologiyasi,didaktikasi va metodikasi.”Ilm-zifo” nashriyoti 2013-yil.Toshkent.
7. B.N.Orripov, “Predmetlar aro bog‘lanish”. ”O‘qituvchi”. 1985-yil.Toshkent.
- 8.R. Hasanov,”Narsani o‘ziga qarab rasm chizish”.T.”O‘qituvchi” 1969-yil.Toshkent.
- 9.N.Saidaxmedov,”Yangi pedagogik tehnologiyalar”.T.”Moliya”.2003-yil.toshkent.
- 10.S.F.Abdirasilov, Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi.2012-yil.Toshkent.